



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIDA

Z.A.Botirova

FarDU, katta o'qituvchi,

G.R.Zuhriddinova

FarDU, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10404071>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-December 2023 yil
Ma'qullandi: 15- December 2023 yil
Nashr qilindi: 19- December 2023 yil

KEY WORDS

*maktabgacha ta'lim,
maktabgacha ta'lim tashkiloti,
boshqaruv, maqsad, vazifalar,
bog'cha, menejment, avtoritar,
liberal, demokratik.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Maktabgacha ta'limning taraqqiyoti, maktabgacha ta'lim taraqqiyotida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta'limni boshqarishni maqsad va vazifalari bayon etilgan.

Mamlakatimizda 1891-1903 yillar davomida mablag' yo'qligi sababli bog'chalar bir necha marta yopilgan. Ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or g'oyalarning ta'siri ostida Toshkentda 1903-yil fevral oyida "Oilaviy ta'lim-tarbiyaviy to'garagi" tashkil qilindi. To'g'arak habiy Ministr va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan Ustav asosida ish boshladi. U o'z oldiga quyidagi vazifalarni:

- 1.Bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda yordam berish;
- 2.Pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilarni(oila, maktab va bolalar bog'chasining yagona tarbiyaviy ta'sir etishini belgilash maqsadida) bir-biriga yaqinlashishni qoyadi.

Bolalar birinchi marta 4 yoshdan 6 yoshgacha va 6-10 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruhlariga bo'lindi. O'sha vaqtlarda ota-onalarni talablari bilan fransuz nemis tillati o'rgatilgan, bu ishlarni mutaxassislar tomonidan bepul amalga oshirilgan. Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida bolalar bog'chalari kabi ayrim bog'chalar yuzaga keldi. 1909-1910-yillarda va keyinchalik xususiy bog'chalar paydo bo'ldi. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari faqat 1917-yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi. 1918-yilda Turkiston Xalq komissarligi qoshida maktabgacha tarbiya bo'limi tashkil etilgan. Birinchi bog'cha-Shayxontoxur dahasida Hasanova-mudiri: Mahsuma Qoriyeva va Robiya Abdurashidova tarbiyachi bo'lib faoliyat ko'rsatgan.

1935-yilga kelib, O'zbekistonda Nizomiy Pedagogika instituti qoshida "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'z faoliyatini boshladi. 16-dekabr 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi. Qonunga asosan Maktabgacha ta'lim muassasalari tashkilot

nomini oldi va uning oshqaruvi 9-bob 48-moddasiga asosan pedagogik kengash, kuzatuv kengashi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarligiga o'tdi. Qonunnihg 51- moddasiga asosan, "Direktor davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbaridir, Direktor davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi-deyilgan,¹

Biz hozirda boshqaruv so'zini menejment so'zi bilan o'rindosh sifatida qo'llab kelamiz. "Memejment" inglizcha so'z bo'lib, boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyatini tashkil etish, rahbarlik qilish, rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi. Menejment ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni insonlar yoki ularning guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmuidir. L.Fishman fikriga ko'ra, ta'lim menejmenti – bu ilmiy asosda tashkil etilgan, o'ziga xos pog'onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar pedagogik jamoa, ta'lim oluvchilar jamoasi. Shunga ko'ra boshqaruvni turli xil modellar asosida amalga oshirish mumkin: integral model, birinchi pog'ona – pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish; ikkinchi pog'ona – bolalar faoliyatini boshqarish.

Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan M.Sharifxo'jaev, Y. Abdullaevlar boshqaaruv o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish ekanligini ta'kidlab, quyidagicha ta'rif beradilar: "boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir". Ta'lim menejmentida boshqarishning quyidagi usullari mavjud.

Avtoritar rahbar:

Buyruq chiqarish, qaror qabul qilish, xodimlarga jazo berish yoki rag'batlantirishda jamoa fikrini hisobga olmaydi, o'zini jamoadan uzoq tutadi, jamoa a'zolarini bevosita muloqatda bo'lishini chegaralab qo'yadi, o'zini noo'rin harakatlarining tanqid qilinishlariga chiday olmaydi.

Liberal rahbar:

Idorasiz, tashabbus bo'ladi, o'z zimmasiga ma'suliyat olishni yoqtirmaydi, idoraga nisbatan qat'iy bo'lishga hayiqadi, o'zini haddan tashqari ehtiyot qiladi.

Demokratik rahbar:

Boshqarish funksiyalarini jamoa fikri bilan hisoblashib amalga oshiradi, ishlab chiqarishni boshqarishga xodimlarni jalb qiladi, xodimlar bildirgan fikriga quloq solidi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarni inobatga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglar, kadrlar, moliyaviy menejment g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishga bog'liq bo'lib, u bolalar va ularning ota-onalarining ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogik jarayonni boshqarish printsiplari, vositalari, shakllari va usullari to'plamini o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishning asosiy printsiplariga yechim maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

Boshqaruvda rahbar muhim vazifalarni bajarish bilan birga mehnat jarayonida kompetenlilik xususiyatlarini namoyon etishi zarur. Rahbarning jarayonni innovatsion boshqarishda uning kasbiy refleksiya muhim rol uynaydi. Kasbiy refleksiya-o'z-o'zini anglashi, o'zini-o'zi boshqarish va o'z-o'zini bilish demakdir.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida"gi Qonuni 9-bob 51-moddasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Vinogradova, N.V.Miklyayeva, Yu.V.Tolstikova va h.
Maktabgacha ta'lim. Terminlar lug'ati/-M.:Ayris-press,2005.—400b.-(Maktabgacha ta'lim va rivojlanish).
2. G.P.Novikova Zamonaviy maktabgacha ta'limni boshqarishshartlar; Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari uchun qo'llanma. – M.:Ventana-Graf,2007.—80b.-(KUtubxona bolalar bog'chasi).
3. A.N.Troyan Maktabgacha ta'limni boshqarish: darslik. – M.: Sfera TC,2005.—160b. (Qo'llanma).
4. F.Qodirova, SH.Toshpulatova “Maktabgacha pedagogika” O'quv qo'llanma-T: 2013yil, 89 b.
5. Z.Botirova ABOUT THE ANALYSIS OF THE POTENTIAL OF TEACHING STAFF IN MONITORING PRESCHOOL EDUCATION. 2008 y.
6. Z.Botirova Повышение мотивации учащихся начальных классов ПРОБЛЕМЫ №6 [151] 2 част 2 Moskov 2020 62-64 ст.
7. Z.Botirova Maktabgacha ta'limda bolalar sog'lom turmush tarzini shakllantirish usullari Молодой учёный №50 Част 8 2020 й, 97-98-бетлар.
8. Sobirjonovich S. I. et al. Pedagogical Personal Characteristics of Professional Employees in Preschool Educational Organizations //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – T. 19. – C. 100-103.
9. Z.Botirova Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar salomatligini mustahkamlash monitoringini amalga oshirish xususida II Xalqaro ilmiy.
10. Z.Botirova, D.Dusmatova (2022). Organizational and management activity of the head of preschool educational organizations Modern journal of social sciences and humanities jurnalining 4-son, 343-348-betlar.
11. Soliyev I., Boymirzayeva S. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 128-129.
12. Sobirjonovich S. I. et al. Heuristic Activity in the Educational Process of the Institutions of Preschool Education //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 529-534.
13. Z.Botirova, M.Xoshimova (2022). Organizational structure of preschool education management International journal of culture and modernity 17-son, 189-193-betlar
14. Z.Botirova, R.Djumaboyeva (2022). Organization of pedagogical monitoring in the system of education quality management International journal of culture and modernity 17-son,183-188-betlar.
15. Z.Botirova, R.Djumaboyeva Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati monitoring xususida. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalining 2022-yil 8-son, 472-478-betlar.
16. Sobirjonovich S. I. et al. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVO-DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 124-130.
17. Z.Botirova, M.Xoshimova Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish “Menejment”tushunchasi va uning xususiyatlari O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalining 2022-yil 8-son, 479-483-betlar

18. Sobirjonovich S. I. et al. CRITICAL THINKING IS ESSENTIAL IN THE CLASSROOM //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – T. 3. – №. 04. – C. 144-147.



INNOVATIVE
ACADEMY